


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIJ TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIV TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL ...	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQ A IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TIJORAT BANKLARI O'RTASIDAGI RAQOBAT DARAJASINING STATISTIK VA EKONOMETRIK BAHOSI: RAQOBAT VA MOLİYAVIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	287
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	

O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI

Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD

ORCID: 0009-0003-5441-3118

Email: eldor.turdaliyev@soliq.uz

Annotatsiya: Maqolada qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, uni aniqlashdagi ayrim murakkabliklar va muammolar tahlil etilgan hamda soliq bazasini shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash yuzasidan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni qo'llash natijalariga asosanib tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i bazasi, soliq, budget siyosati, budget, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Abstract: Studying the administration of value-added tax in our country is also related to the improvement of value-added tax. The article analyzes the specific features of calculating the value-added tax base, some complications and problems in its determination, and focuses on issues of improving the formation of the tax base. In addition, based on the results of the changes and additions made in determining and calculating the value-added tax base, appropriate conclusions were formed and recommendations were developed.

Key words: value added, value added tax base, tax, budget policy, budget, tax administration, tax potential, regulatory analysis, tax burden, tax reporting, tax revenues, tax benefits.

Аннотация: Изучение администрирования налога на добавленную стоимость в нашей стране также связано с совершенствованием налога на добавленную стоимость. В статье анализируются особенности расчета налоговой базы на добавленную стоимость, некоторые сложности и проблемы ее определения, а также акцентирующая внимание на вопросах совершенствования формирования налоговой базы. Кроме того, по результатам внесенных изменений и дополнений при определении и расчете базы налога на добавленную стоимость были сформированы соответствующие выводы и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: добавленная стоимость, база налога на добавленную стоимость, налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, налоговый потенциал, нормативный анализ, налоговое бремя, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы.

KIRISH

Yangi soliq konsepsiyasi natijasida soliq tizimi ancha takomillashtirildi va amaliyotda uni qo'llash jarayonida tizimni yanada samarali rivojlantirish, aniqlikni oshirish hamda soliq organlari mutaxassisleri va tadbirkorlar o'rtasida qonunchilik talablarini yanada uyg'un qo'llashga qaratilgan imkoniyatlar shakllanmoqda. Ayrim holatlarda esa soliq tizimi tamoyillarini yanada mustahkamlash bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ko'plab ilmiy va amaliy muhokamalarga sabab bo'layotgan qo'shilgan qiymat solig'i ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliqni qo'llashdagi amaliy jihatlar va ularni takomillashtirish yechimlari bo'yicha soliq bazasini hisoblashni tahlil qilish hamda mavjud yondashuvlarni yanada rivojlantirish ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon tajribasiga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy global iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini va soliq omillarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish, salbiy farq summalarini qoplash va ularni takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish va uni undirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda biznesni rivojlantirish uchun qulay investitsion muhit yaratishga



alohida e'tibor berilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus iqtisodiy lug'atida QQSni aniqlash quyidagicha ifodalangan: "Korxonada tovar va xizmatlar sotishdan olinadigan tushumlar hamda tashqi bozorning boshqa ishlab chiqaruvchilaridan olingan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning narxi o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan ushbu korxonaning qiymatini oshiruvchi miqdorda soliq undiriladi" (Rayzberg, 2008).

Bir-biriga yaqin fikrlar bilan mamlakat qonunchiligida belgilangan ta'riflarni qo'llab-quvvatlagan olimlardan Polyak, Romanovskiylarning (2008) fikricha: "Qo'shilgan qiymat solig'i — ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida yaratilgan va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati hamda ishlab chiqarish va aylanma mablag'larga sarflangan moddiy xarajatlarning qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlangan qo'shimcha qiymatning bir qismini budjetga olib chiqish shaklidir".

Toshmatov (2012): "Qo'shilgan qiymat solig'i bu xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotilgan tovar, bajarilgan ish va xizmatlarning bozor narxiga nisbatan hisoblangan bilvosita soliqlardir", deya ta'riflagan.

Pavlova va Dorjkolarning (2014) fikricha, "agar QQSning soliq stavkalarini kamaytirsak, unda budjet daromadlari sezilarli ravishda kamayadi, bu esa mablag'lar taqsimlanishining ko'payishiga olib keladi. Boshqa tomondan, agar ta'riflarni ko'rib chiqsak, ko'pchilik tashkilotlar soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni kuchaytiradilar, bunga ruxsat berilmaydi, chunki davlat budjeti kamroq moliyaviy resurslarga ega bo'ladi", deb hisoblaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda qo'shilgan qiymat solig'ini «Yevropacha» soliq deb ham atashadi (Romanovskogo, Vrublevskoy, 2007).

Qo'shilgan qiymat solig'i fransuz iqtisodchisi Moris Lore (1958) nomi bilan bog'liq bo'lib, 1954-yilda Kot-d'Ivuar fransuz koloniyasida yangi soliq sifatida sinovdan o'tkazilgan, 1958-yilda esa Fransiya joriy etilgan. Keyinchalik Yevropaning barcha mamlakatlarga 1972-yil oxirigacha o'z hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun QQSni joriy etish bo'yicha buyurtma berilgan. Hozirgi kunda 137 ta mamlakatda QQS joriy etilgan.

Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabilar (2016) esa qo'shilgan qiymat solig'i va davlat xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilib, ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun davlat xarajatlarini qisqartirish, natijada esa QQS stavkasini ham pasaytirishni ilgari suradi.

Sabine Freizer tomonidan "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat" (2006) nomli tadqiqotida O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini isloh qilishning umumiy ko'rinishi beriladi va soliq yig'ish mexanizmlarini takomillashtirish muammolari hamda imkoniyatlari yoritiladi. Muallif soliqlarni undirish jarayonini yaxshilashga soliq to'lovchilarni o'qitish va tushuntirish ishlarini yaxshilash, shaffoflik va mas'uliyatni oshirish, soliq ma'muriyatchiligi tizimini modernizatsiya qilish orqali erishish mumkinligini taklif qiladi.

Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) tomonidan "O'tish davridagi mamlakatlarda soliq islohotlarining soliq qonunchiligiga ta'siri: O'zbekistondan olingan dalillar" nomli tadqiqotida soliq tartib-qoidalarini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasaytirishga qaratilgan soliq islohotlari soliqqa rioya etish va daromadlarni yig'ishni oshirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, QQS ma'muriyatchiligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, xorijiy tajribalar hamda rasmiy statistik va tahliliy manbalarni o'rganish orqali to'plandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tizimli, mantiqiy va huquqiy tahlil usullari asosida umumlashtirilib, QQS ma'muriyatchiligining amaldagi holati, uni takomillashtirish yo'nalishlari hamda amaliy mexanizmlarining samaradorligi ilmiy jihatdan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlab, O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 31-dekabrda "Soliq va budjet siyosatining 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-398-son¹ Qonuni bilan Soliq kodeksining 227-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Unga ko'ra, "Soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi mavjud bo'lmagan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lovchiga qaytarilishi" belgilab qo'yilgan. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining soliq davri yakunlariga

1 <https://lex.uz/docs/-2855474> (Hujjat kuchini yo'qotgan 08.01.2020)

ko'ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o'tkaziladi va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi quyidagi ketma-ketlikda qaytariladi:

- Soliq kodeksining 207-moddasiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qoplanadi;
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzi qoplanadi;
- soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Soliq kodeksining 207-moddasiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini qoplash yoki soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzini qoplash 56-moddada belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qaytarilgandan keyin ham saqlanib qolgan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi soliq to'lovchining yozma arizasi asosida uning bank hisobvarag'iga, agar mazkur ariza ortiqcha summa hosil bo'lgan hisobot davri tugaganidan keyin o'n ikki oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etilgan bo'lsa, 228-moddada belgilangan tartibda qaytarilishi mumkinligi belgilab qo'yildi. Soliq kodeksining 228-moddasida soliq summasini qaytarib berish tartibining umumiy qoidalari keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilishi keltirib o'tilgan. Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni qog'oz shaklida uch nusxada ilova etgan holda yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;
- qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi;
- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Soliq to'lovchilar ushbu hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — eksportni tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek, chet el valyutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni;

1¹) tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — vositachilik, topshiriq shartnomasi hujjatlarining ko'chirma nusxalarini, shuningdek, chet el valyutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni yoki ularning ko'chirma nusxalarini;

2. chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilayotgan yuridik shaxslar — belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvara-q-fakturalarning nusxalarini;

3. "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan, shuningdek, chet el yuklarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar:

- ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini;
- bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan haq to'langanligini tasdiqlovchi bank ko'chirmasi nusxasini;
- ishlar (xizmatlar) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan, ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini;

4. aholiga suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar — nol darajali stavka qo'llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish to'g'risidagi yozma arizani ko'rib chiqish, qaytarilishi lozim bo'lgan ortiqcha summani aniqlash va mablag'larni soliq to'lovchining hisobvarag'iga o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan.

Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi sobiq Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2016-yil 7-apreldagi "Soliq to'lovchilarga nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasini soliq to'lovchining



bankdagi hisobvarag'iga qaytarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2775-son² qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 228-moddasida nazarda tutilgan nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasini qaytarish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish, qaytarilishi lozim bo'lgan ortiqcha summani aniqlash hamda mablag'larni soliq to'lovchining bankdagi hisobvarag'iga qaytarish tartibini belgilaydi. Nizomda QQSning ortiqcha summasi deganda hisoblab chiqarilgan soliq summasidan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotda foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) hisobga olinadigan, to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) QQS summasining ortishi tushuniladi. 2016-yildan 2020-yilgacha quyidagi tartibda qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasi, ya'ni faqatgina nol darajali stavka bo'yicha amalga oshirilgan oborotga to'g'ri kelgan hisobga olingan summaning ortgan qismi korxonalarga qaytarib berilgan. Qaytarish tartibi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (eski tahrirdagi) 207-moddasiga asosan to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasi (O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan taqdim qilingan ishlar va xizmatlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasi) qoplanadi;
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzi qoplanadi;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 228-moddasiga muvofiq soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

QQSning ortiqcha summasini O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (eski tahrirdagi) 207-moddasiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasini, shuningdek, boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni qoplash hisobiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 56-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Nizomning 3-bandiga muvofiq, boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni qoplashdan keyin saqlanib qolgan QQSning ortiqcha summasi soliq to'lovchining arizasiga asosan uning bankdagi hisobvarag'iga qaytariladi. QQSning ortiqcha summasini soliq to'lovchining bankdagi hisobvarag'iga qaytarish to'g'risidagi ariza soliq to'lovchi tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan QQSning ortiqcha summasi hosil bo'lgan hisobot davri tugaganidan keyin o'n ikki oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etilishi lozim. QQSning ortiqcha summasini bank hisobvarag'iga qaytarish to'g'risidagi ariza belgilangan muddat tugagandan keyin taqdim qilingan taqdirda, QQSning ortiqcha summasi soliq to'lovchining bankdagi hisobvarag'iga qaytarilmaydi, balki boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni qoplash yo'li bilan amalga oshiriladi. QQSning ortiqcha summasini soliq to'lovchining bankdagi hisobvarag'iga qaytarish tegishli davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchining QQSning ortiqcha summasini qaytarish to'g'risidagi arizasi olingan vaqtdan boshlab 7 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. QQSning ortiqcha summasini soliq to'lovchining bankdagi hisobvarag'iga qaytarish to'g'risidagi ariza quyidagi shaklda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga yozma tarzda bir nusxada yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron shaklda yuboriladi va tovarlar eksport qilinganligi hamda valyuta tushganligi to'g'risida ma'lumot ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-son³ Qonuni bilan Soliq kodeksining bir qator moddalariga o'zgartirishlar kiritildi. Shuningdek, ushbu Qonunning 5-moddasi orqali hisoblangan soliq summasidan hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining oshib ketishi natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'rnini qoplash 2020-yil 1-iyuldan e'tiboran amalga oshirilishi belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, 272-moddada agar hisoblab chiqarilgan, budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi salbiy bo'lsa, soliq to'lovchi mazkur summaning o'rnini Soliq kodeksining 274-moddasida belgilangan tartibda qoplash huquqiga ega bo'lishi belgilab berildi va qoplash tartibi Soliq kodeksining 274-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanishi ko'rsatib o'tildi. Shunga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 489-son⁴ qarori qabul qilindi. Qarorda quyidagi yo'nalishlarda ishlarni tashkil etish tartibini ko'zda tutuvchi nizomlar tasdiqlandi:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash tartibi to'g'risidagi Nizom;
2. Hisobvara-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom;
3. Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqib aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom;
4. Tovarlarga (xizmatlarga) haq to'lash bo'yicha majburiyat umid qilib bo'lmaydigan qarzdorlik deb e'tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo'lgan hollarda qo'shilgan qiymat solig'i bazasiga tuzatish kiritish tartibi to'g'risidagi Nizom;
5. Chet el yuridik shaxslarida ishtirok etish to'g'risidagi xabarnomalarning shakllari, ularni to'ldirish va

2 <https://lex.uz/docs/-2926258> (Hujjat kuchini yo'qotgan 30.11.2020)

3 <https://lex.uz/docs/-4674011>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-4948595>

taqdim etish tartibi to'g'risidagi Nizom;

6. Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari haqidagi xabarnomalarning shakllari, ularni to'ldirish va taqdim etish tartibi to'g'risidagi Nizom.

Nizom Soliq kodeksining 274-moddasida ko'rsatib o'tilganidek, qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash shartlari va tartibini belgilaydi. Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farqi (manfiy tafovuti) summasini qoplash, shu jumladan, boshqa soliqlar bo'yicha qarzdorlikni uzish hisobida Nizom maqsadlarida qoplanishi lozim bo'lgan soliq summasi deganda Soliq kodeksiga muvofiq aniqlanadigan, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi salbiy farq tushuniladi. Soliq summasi o'rnini qoplash masalasi, qoida tariqasida, soliq to'lovchi hisobga olingan joydagi davlat soliq boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqiladi va qaror qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining topshirig'iga asosan soliq to'lovchining arizasi va taqdim etilgan hujjatlari soliq to'lovchi hisobga olingan joydan o'zga joydagi soliq organlari tomonidan ko'rib chiqilishi va qaror qabul qilinishi mumkin. Soliq summasi soliq to'lovchiga soliq organining soliq summasi o'rnini qoplash to'g'risidagi qarori asosida, soliq summasini qoplash (qaytarish) to'g'risidagi ariza tushgan sanadan e'tiboran 2022-yilga qadar oltmish kundan, Nizomning 6-bobida ko'rsatilgan tartibda esa yetti kundan kechiktirmay qaytarilishi lozim edi.

Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan arizalarda rad etilgan arizalar ulushi ko'proq. Buning asosiy sabablari va muammolarini quyidagi holatlarda ko'rish mumkin.

1. Bilamizki, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy tafovut hosil bo'lishi xarid qilingan mahsulotlar bo'yicha hisobga olingan QQS summasi ortib ketishi natijasida yuzaga keladi. Hisobga olish uchun esa birlamchi hujjatlar — schyot-fakturalar hisoblanadi va ular asosida budjetdan QQSni qaytarish amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda ushbu hujjatlarni rasmiylashtirishga Nizom bo'yicha bir nechta talablar qo'yiladi. Ya'ni, tovarlar (xizmatlar) xarid qilinishida hisobvara-fakturalar elektron hisobvara-fakturalarning axborot tizimida rasmiylashtirilgan, soliq to'lovchi tomonidan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha hisobvara-fakturalarni rasmiylashtirish to'liq elektron hisobvara-fakturalarning axborot tizimi orqali amalga oshirilgan hamda soliq summasini hisobga olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lishi lozim.

2. Soliq to'lashdan har xil yo'llar bilan qochish imkoniyatlarini qidirish. Bunda korxonalar huquqni suiiste'mol qilish, qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik uchun bitimlar tuzish (operatsiyalarni amalga oshirish) orqali soliqni to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik holatlari, huquqni suiiste'mol qilish, shu jumladan, soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan soliq summasini qonunga xilof ravishda oshirish yoki to'lanadigan soliq summasini kamaytirish sxemalarining qo'llanishi natijasida asossiz soliq nafi olinganlik holatlari, soliq to'lovchi tomonidan iqtisodiy mazmuniga mos kelmaydigan xo'jalik operatsiyalari hisobotda aks ettirilishi yoki kontragentni tanlashda lozim darajada ehtiyotkorlik qilish bo'yicha majburiyat bajarilmasligi natijasida asossiz soliq nafi olinishi holatlari natijasi bo'yicha rad etiladi. Shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan amalga oshirilgan bitim (operatsiya)ning asosiy maqsadi soliq summasini to'lamaslik (to'liq to'lamaslik) va hisobga olish bo'lgan hamda bitim (operatsiya) bo'yicha majburiyat soliq to'lovchi bilan tuzilgan shartnomaning tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni (operatsiyani) bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilgan holatlar aniqlanganda hamda bitimlar (operatsiyalar) haqiqiy emas va tadbirkorlik faoliyati doirasida daromad olishga qaratilmagan yoki iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamagan deb topilganda ham rad etilishi lozimligi Nizomda belgilab qo'yilgan. Shu o'rinda bitta holatga e'tibor qaratish lozim. Soliq kodeksining 15-moddasida soliq to'lovchilar lozim darajada ehtiyotkorlikka e'tibor qaratishlari lozimligi keltirilgan. Ya'ni, unga ko'ra soliq munosabatlarida soliq to'lovchilar kontragentlarni tanlash chog'ida ularning soliq organlarida soliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yilganligini, kontragentning ishbilarmonlik obro'sini, ishlab chiqarish bazasi va xodimlari mavjudligini, moliyaviy holatini, bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tekshirib, lozim darajada ehtiyotkorlik qilishi shart.

Soliq to'lovchi tomonidan uning oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha qilingan xarajatlar (ko'rilgan zararlar), agar ushbu soliq to'lovchi bitim tuzayotganda lozim darajada ehtiyotkorlik qilgan bo'lsa, soliq solish maqsadida belgilangan tartibda tan olinadi. Soliq organlari soliq to'lovchilarga kontragentlarning soliq organlarida soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yilganligi to'g'risidagi axborotdan, shuningdek, boshqa axborotdan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda foydalanish imkoniyatini beradi. Bugungi rivojlanish sharoitida soliq to'lovchilar kontragentlarini tanlashda ularning ishbilarmonlik obro'sini, ishlab chiqarish bazasi va xodimlari mavjudligini, moliyaviy holatini hamda bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini baholash amaliyoti tobora takomillashib bormoqda. Bundan tashqari, ushbu yo'nalishda interaktiv xizmatlar va umumiy milliy axborot bazalarini rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli korxonalar kontragentlarini tanlashda lozim darajada ehtiyotkorlikni ta'minlash imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Albatta, QQSni qoplash bo'yicha arizani ko'rib chiqish jarayonida soliq organi mas'ul xodimi lozim darajada ehtiyotkorlik talablariga rioya etilgan holatlarda arizani belgilangan tartibda ko'rib chiqadi. Soliq organlari



faoliyatidagi tahlillar ushbu yo'nalishda nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish va xo'jalik bitimlarini xolis baholash imkoniyatlari izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sud amaliyotida tadbirkorlik operatsiyalarining haqqoniyligini tasdiqlashga oid huquqiy yondashuvlar ham izchil shakllanib bormoqda.

3. Soliq to'lovchi tomonidan so'ralgan hujjatlar taqdim etilmagan yoki soxta hujjatlar taqdim etilganda, shuningdek, hududni, ishlab chiqarish, omborxona, shu jumladan, soliq to'lovchi daromad olish uchun foydalanadigan yoki soliq solish ob'ektlarini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechirishga, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishga to'sqinlik qilinganda ham arizani ko'rib chiqish rad etiladi.

4. Soliq to'lovchi va unga tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha operatsiyalar ketma-ketligida ishtirok etgan kontragentlar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaganda yoki yetkazib beruvchilarda ushbu tovarlarning qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan holatlar. Ko'pincha QQSni budjetdan qaytarishni soliq to'lovchining kontragentlari tomonidan soliq qonun hujjatlariga rioya qilish bilan bog'laydi. Biroq, aksariyat hollarda iqtisodiy sudlar bu yondashuvning to'g'riligini qo'llab-quvvatlamaydi. O'z pozitsiyasini asoslash uchun sudlar har bir soliq to'lovchi o'z vazifalarini bajarish uchun mustaqil ravishda javobgar ekanligini va soliq to'lovchi uchinchi shaxslarning, shu jumladan, uning kontragentlarining harakatlari uchun javobgar bo'lmashligini qayd etadi. Muammoni minimallashtirish uchun yetkazib berish shartnomasiga soliq tuzatish kiritishni va soliq to'lovchilar to'g'risida milliy bazani yaratish taklifini qo'llab-quvvatlash lozim.

Har qanday korxona faoliyat ko'lamini yanada kengaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik jihatdan qayta qurollantirish yoki modernizatsiya qilish, jamoani moddiy yoki moliyaviy rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish, oxir-oqibatda, foyda ko'rsatkichiga borib taqaladi. Davlat budjeti, hamkorlar va h.k. bilan bo'ladigan o'zaro majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq ado etilishini ham foyda ko'rsatkichidan alohida holda tasavvur etib bo'lmaydi. O'z navbatida, har bir korxonaning sog'lom faoliyat yuritishi esa, avvalo, u faoliyati natijasining rentabelli bo'lishini taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

QQS ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha 3 ta asosiy yo'nalish:

AI asosida "soliq uzilishlari"ni (tax gap) avtomatik aniqlash: inson omilisiz, tizim orqali shubhali zanjirlarni real vaqt rejimida blokirovka qilish.

To'liq raqamli kuzatuv (traceability): tovarning ishlab chiqarishdan tortib iste'molchigacha bo'lgan harakatini e-faktura va onlayn-kassa ma'lumotlari bilan 100% integratsiya qilish.

"Ishonchli to'lovchi" reytingi: halol tadbirkorlar uchun QQSni qaytarish va hisobot topshirishni maksimal soddalashtirish, "qora ro'yxat"dagilar bilan esa qat'iy avtomatlashtirilgan nazoratni qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sabine Freizer tomonidan "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat" // <https://documents1.worldbank.org/curated/en/542691624154434845/text/Uzbekistan-Tax-Administration-Reform-Project.txt>
2. Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) https://www.files.ethz.ch/isn/139068/643172_sa231.pdf.
3. Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. (2016) Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // *Procedia Economics and Finance*. Volume 36,. Pages 336-344.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) // URL: <https://lex.uz/docs/-4674902>
5. Морис Лоре (1958) Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. 4-е изд. — И.Д Питер "Во Франции он стал применяться с 1958 г".
6. Павлова Е.В., Дорожко Д.А. (2014) Безработица как социально-экономическое явление в современной экономике. Проблемы безработицы в Российской Федерации и меры по её снижению // *Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Экономика и управление..* № 3 (18). С. 29–31. №2.
7. Райзберг Б.А. (2008) Современный экономический словарь [Текст] / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. — М.: ИНФРА-М,. — 512 с.
8. Романовский М.В. (2008) Налоги и налогообложение: налог на добавленную стоимость/М.В. Романовский, О.В.Врублевская. — СПб.: Питер,. — 576 с.
9. Романовского М.В., Врублевской О.В. (2007) Налоги и налогообложение: учебник [Текст] / под ред. М.В.Романовского, О.В. Врублевской. — 6-е изд. — СПб.: Питер, — 491 с.
10. Тошматов Ш.А. (2012) Қўшилган қиймат солиғи. Монография .-Т: "Молия",. 15 б; 160 бет.
11. Завалищина И. Солиқлар: назария ва амалиёт. Т: 2005, "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 2005. — 539 б
12. Jingxian Zou, Guangjun Shen, Yaxian Gong. The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform. // *China Economic Review*. Volume 54, April 2019. — Pages 135-146
13. Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // *Procedia Economics and Finance*. Volume 36, 2016. Pages 336-344.
14. Turdaliyev Eldor Sho'ra'jon o'g'li "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish masalalari" I.f.f.d (PhD) dissertasiyasi avtoreferati T.: 2026. -11 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100